

SAMARQAND DAVLAT CHET TILLAR INSTITUTI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.03/30.12.2019.Fil/Ped.83.01 PAQAMLI ILMIY KENGASH

NAVOIY DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI

XOLIBEKOVA OMONGUL KENJABOYEVNA

INGLIZ VA O‘ZBEK TILLARIDA ZONIM VA FITONIM
KOMPONENTLI FRAZEOLOGIK BIRLIKLARNING SEMANTIK-
STRUKTUR, LINGVOMADANIY TADQIQI

10.00.06 - Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog‘ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik

Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI

Samarqand – 2023

**Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по
филологическим наукам**

**Contents of dissertation abstract of a Doctor of Philosophy (PhD)
in Philological sciences**

Xolibekova Omongul Kenjaboyevna

Ingliz va o'zbek tillarida zoonim va fitonim komponentli frazeologik birliklarning
semantik-struktur, lingvomadaniy tadqiqi 3

Холибекова Омонгул Кенжабоевна

Семантико-структурное, лингвокультурологическое исследование
фразеологических единиц с компонентом зооним и фитоним в английском и
узбекском языках 23

Khalibekova Omongul Kenjaboyevna

Semantic-structural, linguocultural analysis of phraseological units with zoonym
and phytonym component in english and uzbek languages 45

E'lon qilingan ishlar ro'uxati

Список опубликованных работ

List of published works49

SAMARQAND DAVLAT CHET TILLAR INSTITUTI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.03/30.12.2019.Fil/Ped.83.01 PAQAMLI ILMIY KENGASH

NAVOIY DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI

XOLIBEKOVA OMONGUL KENJABOYEVNA

INGLIZ VA O‘ZBEK TILLARIDA ZONIM VA FITONIM
KOMPONENTLI FRAZEOLOGIK BIRLIKLARNING SEMANTIK-
STRUKTUR, LINGVOMADANIY TADQIQI

10.00.06 - Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog‘ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik

Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI

Samarqand – 2023

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi Oliy attestatsiya komissiyasida B2020.3.PhD/Fil1388 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi Navoiy davlat pedagogika institutida bajarilgan.
Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, ingliz, rus) Ilmiy kengash veb-sahifasining www.samdhti.uz hamda «ZiyoNet» axborot-ta'lim portali www.ziynet.uz manziliga joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Murodova Nigora Qulliyevna,
filologiya fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Nasrullayeva Nafisa Zafarovna
filologiya fanlari doktori(DSc), professor

Xolmatova Vazira Narzullayevna
filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori(PhD), dotsent

Yetakchi tashkilot:

O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti

Dissertatsiya himoyasi Samarqand davlat chet tillar instituti huzuridagi ilmiy daraja beruvchi PhD.03/30.12.2019.Fil/Ped.83.01-raqamli Ilmiy kengashning 2023-yil «30» may soat 10 dagi majlisida bo'lib o'tadi (Manzil: 140104, O'zbekiston, Samarqand, Bo'stonsaroy ko'chasi, 93-uy. Tel.: (99866) 238-29-37; faks: (99878) 210-00-18; e-mail: info@samdhti.uz. Samarqand davlat chet tillar instituti bosh binosi).

Dissertatsiya bilan Samarqand davlat chet tillar institutining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (№ 6449 raqami bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 140104, O'zbekiston, Samarqand, Bo'stonsaroy ko'chasi, 93-uy. Tel: (99866) 238-29-37.

Dissertatsiya avtoreferati 2023-yil «12» may kuni tarqatildi.
(2023-yil «12» may dagi № 31 raqamli reestr bayonnomasi).



[Handwritten signatures in blue ink]

I.M.Tuxtasinov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi, pedagogika fanlari doktori (DSc), professor

G'.Q.Mirsanov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash kotibi, filologiya fanlari doktori(DSc), dotsent

Sh.S.Safarov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi, filologiya fanlari doktori, professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon tilshunosligida asosiy universal konseptlarning milliy-madaniy o'ziga xos qirralarini til tizimining frazeologik birliklari misolida ochib berish zamonaviy antropologik lingvistika paradigmasida o'rganib kelinmoqda. Turli tillar frazeologiyasini qiyosiy jihatdan o'rganish esa har ikkala tilning ham tuzilishini chuqur anglab yetish, bu til sohiblari bo'lgan insonlarning fe'li, madaniyati, adabiyoti, tarixi, urf-odatlari to'g'risidagi bilimlarning boyitilishiga xizmat qiladi. Uzoq muddatli taraqqiyot mahsuli hisoblangan frazeologizmlar xalqlarning o'zligi, dunyoqarashi, tarixi, madaniyati va ma'naviy turmush tarzi, an'ana hamda urf-odatlarini aks ettiruvchi muloqot vositasi sifatida mavjud bo'lib, o'zining milliy-lisoniy xususiyatlari, til me'yori, umumiy qonuniyatlari doirasida qo'llanishi jihatidan alohida e'tiborni tortadi.

Dunyo tilshunosligida, shuningdek, turkiyshunoslikda bugungi kunda qardosh va qardosh bo'lmagan tillarga qiziqish, boshqa xalqlar madaniyati, urf-odat, an'analarning tilga ta'sirini asoslash, jumladan frazeologik birliklarning semantik va lingvomadaniy xususiyatlarini aniqlash kabi ustuvor yo'nalishlarda tadqiqotlar olib borilmoqda. Bunday tadqiqotlarning samarasi o'laroq tilshunoslik sohasi taraqqiy etmoqda. Xususan, frazeologik birliklarning tillarda aks etish darajasini o'rganish, xalqning yashash hududi va sharoiti, turmush tarzi, mental xususiyatlari, milliy xarakter kabi tushunchalarni tahlil qilish, til va madaniyatni o'zaro aloqasi hamda ta'siri bilan bog'liq jarayonlarni ochib berish dolzarb masalalardan hisoblanadi. Zero, til va madaniyat o'rtasidagi munosabatlarni inson, til va madaniyatning o'zaro ta'siri va aloqasi zahirida yetarli darajada tushunish va talqin qilish mumkin.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan 2021-yil 19-mayda qabul qilingan "O'zbekiston Respublikasida xorijiy tillarni o'rganishni ommalashtirish faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-5117-son qarori ham soha pedagoglarining kasbiy kompetensiyasini takomillashtirish, xorijiy tilni o'qitish va o'rganishning naqadar muhim vazifalardan ekanligini ko'rsatadi. Mamlakatimizda chet tilini, xususan, ingliz tilini chuqur o'qitishga e'tibor oshib, hozirda uzluksiz ta'lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari ishlab chiqildi. Xususan, "Aholi orasida xorijiy tillarni o'rganishni ommalashtirish va ularni mukammal o'zlashtirish uchun zarur sharoitlar yaratish, xorijiy tillarni o'qitishning xalqaro tan olingan dastur va darsliklari ta'limning barcha bosqichlarida joriy etilishini muvofiqlashtirish hamda o'qituvchilarda zamonaviy o'qitish ko'nikmalarini rivojlantirish"¹ga ustuvor yo'nalish sifatida qaralgan. Shuningdek, qarorda chet tillarni o'rganishning xalqaro standartlariga muvofiq tarzda olib borilishi, baholashning milliy tizimini yaratish va chet tillarni o'qitish tizimini yanada takomillashtirish vazifalari belgilab qo'yilgan.

¹2021-yil 19-maydagi "O'zbekiston Respublikasida xorijiy tillarni o'rganishni ommalashtirish faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-5117-sonli qarori.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi «O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida»gi PF-4947-son Farmoni, 2019-yil 21-oktabrdagi PF-5850-son “O‘zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeni tubdan oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2019-yil 8-oktabrdagi PF-5847-son “O‘zbekiston Respublikasining 2030-yilgacha oliy ta‘lim tizimini rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”, 2020-yil 20-oktabrdagi PF-6084 son “Mamlakatimizda o‘zbek tilini yanada rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmonlari hamda 2021-yil 19-maydagi PQ-5117-son “O‘zbekiston Respublikasida xorijiy tillarni o‘rganishni ommalashtirish faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarorlari, mazkur faoliyatga tegishli boshqa me‘yoriy- huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga bog‘liqligi. Mazkur tadqiqot ishi respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining «Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma‘naviy-ma‘rifiy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni rivojlantirish» ustuvor yo‘nalishi doirasida amalga oshirilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Frazeologiya tilning alohida mustaqil birligi sifatida XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab maxsus o‘rganib kelinmoqda. Bu yo‘nalish shveysariyalik olim Sh.Balli nomi bilan bog‘liq. Shuningdek, frazeologiya bo‘yicha ilmiy tadqiqot ishlarining takomiliga ingliz olimlaridan L.P.Smit, E.Sepir, K.Kachchiari, P.Tabossi, M.Everert, R.Mun, V.Evans, A.Nazisione², rus olimlaridan N.Amosova, A.V.Kunin, V.Vinogradov, V.Teliya, V.A.Maslova, N.F.Alefirenko³, o‘zbek tilshunoslaridan Sh.Rahmatullayev, Ya.Pinxasov, A.Bushuy, E.Begmatov, B.Yo‘ldoshevlar, A.Mamatov⁴ munosib hissa qo‘shgan. Mazkur olimlarning ishlarida frazeologizmlarning milliy-madaniy xususiyatlarining talqini, lisoniy

²Logan Pearsall Smith. Words and idioms: studies in the English language. Printed in Great Britain by Robert Maclehose and Co. Ltd. » The University Press, Glasgow.,1925.; Sapir E. Language, Culture and Personality (edited by David G. Mandelbaum). - University of California Press, 1963. – 642p.; Nacisione A. Stylistic Use of Phraseological Units in Discourse. 2011. – P.289.; C. Cacciari, P. Tabossi. The comprehension of idioms. Journal of Memory and Language 27.1988, – P. 668-683.; M. Everert. Idioms: structural and Psychological Perspectives, 1995. – 329p.; R. Moon.Fixed expressions and idioms in English: A Corpus -Based Approach.Oxford University press, USA,1998. – 352p.; V. Evans, M. Green.Cognitive linguistics. 2006. – 439p.

³Амосова Н. Н. Основы английской фразеологии: Дис. д-ра филол. наук. Л., 1961; Кунин А.В. Фразеология современного английского языка. -М.: 1972.; Виноградов В.В. Об основных типах фразеологических единиц в русском языке // Академик А.А.Шахматов (1864 - 1920): [Сб. ст.] / Под ред. С.П. Обнорского. - М.-Л., 1974; Телия В.Н. Фразеология в контексте культуры. М., Русский язык. 1999.; Маслова В.А. Лингвокультурология. Учебное пособие. М.: Академия, 2001. –154с; Алефиренко Н.Ф. Фразеология и паремиология: М.: Флинта: Наука, 2009. -344с.

⁴Rahmatullayev Sh. O‘zbek frazeologiyasining ba‘zi masalalari: Filol. fan. d-ri. dis. ... avtoref. –Toshkent, 1966. – B.46; Pinxasov. Ya.D. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. Lesikologiya va frazeologiya. – Toshkent: O‘qituvchi, 1969. – B.55-65.; Бушуй А.М. О кодификации фразеологических материалов. Вопросы лексикологии и лексикографии романских и германских языков. - Самарканд, 1980, –С. 4-13.; Бегматов Э. Лексические пласты узбекского литературного языка (на узб. яз). Тошкент: Фан, 1985. –122с.; Yo‘ldoshev V. Hozirgi o‘zbek adabiy tilida frazeologik birliklarning funksional-uslubiy xususiyatlari: Filol. fan. d-ri. dis. ... avtoref. – Toshkent, 1993. – B.47; Mamatov A. O‘zbek tili frazeologizmlarining shakllanishi masalalari: Filol. fan. d-ri. dis. ... avtoref. –Toshkent, 2000. – B.56.

madaniyatshunoslik, til semantikasi hamda lingvistika va lingvofalsafa masalalari tahlil qilingan.

Zoonimlar, zoonim komponentli matnlarning lingvistik xususiyatlari D.X.Bazarova, H.A.Saidova, Dj.Metyakubov, B.B.Abdushukurov, N.R.Nishonova, B.Zaripov, B.M.Jo'rayeva, D.M.Yuldasheva, G.E.Hakimova, A.J.Omonturdiyev, Sh.Noraliyeva⁵ kabi olimlar tomonidan o'rganilgan. Ingliz tilida zoonim komponentli frazeologik birliklar nisbatan kam o'rganilgan soha bo'lib, asosan Dobrovolskiy va Piiraynen kabi olimlarning ishida kuzatishimiz mumkin⁶. Bundan tashqari Alster va Gordon singari olimlarning ta'kidlashicha, hayvon obrazlaridan insonlarning noto'g'ri xatti-harakatini satira qilish maqsadida foydalanilgan. Shuningdek, hayvon obrazlari ilk marotaba maqollarda bundan to'rt yarim ming yil ilgari qo'llanilganligi ta'kidlangan.⁷

Fitonimik leksika tadqiqotlari X.Jamolxonov, Yu.Eshonqulov, G.Nigmatova, G.Xoshimxo'jayeva⁸ kabi o'zbek olimlari ishlarida o'z aksini topgan. Ingliz tili fitonimlarining tahliliga bag'ishlangan eng ahamiyatli tadqiqotlar sifatida T.B. Gaber, J.Rasa, I.Samfira, F.Sala, D.Xuk, U.Krishke, O.P.Ryabko⁹larning ishlarini keltirish mumkin.

⁵Базарова Д.Х. История формирования и развитие зоологической терминологии узбекского языка. – Ташкент: Фан, 1978. – С. 222.; Saidova H.A. O'zbek tilida hayvon nomlarining shaxs tavsifi vazifasida qo'llanilishi: Filol.fanlari nomzodi.... diss. – Vuxoro, 1995. – 178 b.; Метякубов Дж. Характеристика человека зоонимами в разнотипных языках: на материале английского и узбекского языков: Дисс. ... канд.филол.наук. – Ташкент, 1996. – 173 с.; Abdushukurov B.B. XI-XIV asr turkiy yozma manbalar tilidagi zoonimlar: Filol.fanlari nomzodi.... diss. – Toshkent, 1998. – 207 b.; Nishonova N.R. O'zbek tilida "hayvon" arxisemali leksemalar maydonining mazmuniy tahlili: Filol. fanlari nomzodi.... diss. –Toshkent, 2000. – 120 b.; Zaripov B. Zoonimlarning badiiy san'at turlarini hosil qilishdagi ishtiroki (Alisher Navoiy asarlari asosida): Filol. fanlari nomzodi.... diss. – Toshkent, 2002. – 128 b.; Jo'rayeva B. Maqolning yondosh hodisalarga munosabati va ma'naviy xususiyatlari. – Toshkent: Fan, 2007. – 66 b.; Yuldasheva D.M. O'zbek bolalar folklori tilida zoonimlar: Filol. fanlari nomzodi.... diss. – Toshkent, 2007. – 124 b.; Hakimova G.E. Zoonim komponentli frazeologik birliklarning strukturaviy va semantik xususiyatlari (ingliz tili materiallari asosida): Filol. fanlari nomzodi.... diss. – Toshkent, 2008. – 145 b.; Omonturdiyev A.J. Professional nutq evfemikasi (chorvadorlar nutqi misolida): Filol. fanlari d-ri ... diss. – Toshkent, 2009. – 252 b.; Noraliyeva Sh. O'zbek folklorida bo'ri obrazining mifologik asoslari va badiiy talqini. – Toshkent: Al-faba-servis, 2013. – 115 b.

⁶ Dobrovolskiy D., Piirainen E., Figurative Language:Cross-cultural and Cross-linguistic Perspectives. Emerald Group Publishing, 2005. – 125 b.

⁷Alster Bendt, "Proverbs from Ancient Mesopotamia: their history and social implications", Proverbium. Yearbook of International Proverb Scholarship,10, 1993, The University of Vermont, – P.1-19; Edmund I. Gordon, Sumerian Proverbs: glimpses of everyday life in ancient Mesopotamia, Greenwood Press Publishers, New York, 1968. – 98 b.

⁸ Jamolxonov H. O'zbek botanika terminologiyasining shakllanish va rivojlanish tarixidan: Filol. fan. nom. ... diss. avtoreferati. – T., 1969. – 25 s.; Эшонкулов Ю. Опыт историческо-этимологического анализа названий плодов в узбекском языке: Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Т., 1977. – 24 с.; Нигматова Г.Х. Система и художественное функционирование лексем-названий растений в узбекском языке: Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Т., 1998. – 21 с.; Xoshimxo'jayeva M. Olamning lisoniy tasvirida fitonimlar(ingliz,rus va o'zbek tillari misolida) Filol. fan. falsafa dokt (PhD) diss...avtoref. – Toshkent: 2018. – 20 b.

⁹ Haber T. Canine Terms in Popular Names of Plants // American Speech. – vol. 38, No.1, 1963. – P. 28-41.; Raĭa G., Samfira I., Sala F. Agricultural English. – Newcastle upon Tyne: Cambridge Scholars Publishing, 2012. – P 385.; Klug H.W., Van Arsdall A., Blanz P. The Mandrake Plant and its Legend: a New Perspective // Old Names – New Growth: Proceedings of the 2nd ASPNS Conference, University of Graz, Austria, 6-10 June 2007, and Related Essays. – Frankfurt: Lang, 2009. – P. 285-287.; Hooke D. Trees in Anglo-Saxon Charters: Some Comments and Some Uncertainties // Old Names – New Growth: Proceedings of the 2nd ASPNS Conference, University of Graz, Austria, 6-10 June 2007, and Related Essays. – Frankfurt: Lang, 2009. – P. 75-98.; Krishke U. On the Semantics of Old English Compound Plant Names: Motivations and Associations // Old Names – New Growth: Proceedings of the 2nd ASPNS Conference, University of Graz, Austria, 6-10 June 2007, and Related Essays. – Frankfurt am Main: Lang, 2009. – P. 211-278; Herman D., Moss S. Plant names and folk taxonomiyes: Frameworks for ethnosemiotic inquiry // Semiotica 2007, № 167. – P. 1-11.; Рябко О.П. Номинативные структурно-семантические свойства

Dissertatsiyada jahon hamda o'zbek tilshunoslarining bu sohadagi ilmiy izlanishlari e'tiborga olindi. Ko'rinadiki, ingliz va o'zbek tillarida zoonim va fitonim komponentli frazeologik birliklarning semantik xususiyatlari, grammatik-struktur jihatlari, xususan, madaniyatlararo munosabati bilan bog'liq muammolarni tadqiq etish alohida ilmiy tadqiqotni talab etadi.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejaları bilan bog'liqligi.

Dissertatsiya mavzusi Navoiy davlat pedagogika instituti Ingliz tili va adabiyoti kafedrasining "Qiyosiy tilshunoslik, lingvistik tarjimashunoslik va leksikologiya masalalari" mavzusidagi ilmiy-tadqiqot rejasi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi ingliz va o'zbek tillarida zoonim va fitonim komponentli frazeologizmlarning semantik xususiyatlari, struktural tarkibi va milliy-madaniy o'ziga xos xususiyatlarini chog'ishtirma usulda tadqiq etishdan iborat.

Tadqiqot vazifalari quyidagilar bilan belgilanadi:

ingliz va o'zbek tillarida zoonim va fitonim komponentli frazeologik birliklarning semantik mohiyatini bayon qilish va lisoniy tarkibini aniqlash, shakllanish omillarini, obrazlilik darajasini ochib berish;

qardosh bo'lmagan tillarda milliy madaniy qirralarning mushtarakligi, tarixiy ijtimoiy sharoiti, geografik joylashuvi omilining ta'siri jihatdan farqlanishini asoslash maqsadida zoonim va fitonim komponentli frazeologik birliklarni mavzuiy guruhlarga taqsimlash, ularni madaniyatlararo mazmuniga ko'ra tizimli tavsiflashda ilmiy yondashuvlarni tahlil qilish;

ingliz va o'zbek tillarida zoonim va fitonim tarkibli frazeologik birliklarni shakl va mazmun munosabatiga ko'ra qo'llanish omillarini tahlil qilish va tilshunoslik an'analari asosida tavsiflash;

ingliz va o'zbek tilidagi badiiy asarlarning keng illyustrativ materiallaridan foydalangan holda zoonim va fitonim komponentli frazeologik birliklarning semantik-pragmatik munosabatlarini lingvomadaniy tamoyillar asosida tavsiflash.

Tadqiqotning ob'yekti sifatida ingliz va o'zbek tillaridagi zoonim va fitonim komponentli frazeologik birliklar tanlangan.

Tadqiqotning predmetini ingliz va o'zbek tillaridagi zoonim va fitonim komponentli frazeologik birliklarning semantik-struktur va lingvomadaniy xususiyatlari tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqot mavzusini yoritishda chog'ishtirma, tavsifiy, semantik hamda komponent tahlil usullaridan tahlil metodlari sifatida foydalanildi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

zoonim va fitonim komponentli frazeologik birliklarning leksik-semantik maqomini aniqlash mezonlari ularning tuzilishi, semantikasi kabi o'zaro farqlovchi xususiyatlar tarkibini aniqlashtirish asosida ishlab chiqilgan;

chog'ishtirilayotgan tillar kesimida zoonim va fitonim komponentli frazeologik birliklarning semantik xususiyatlari va konnotativ-baho munosabatlari

yoritilgan hamda semantik-tematik tasnifiga ko'ra turli guruhlarga bo'linishi aniqlangan;

zoonim va fitonim komponentli frazeologik birliklarning struktural tarkibi ochib berilib, ularning so'z birikmasiga, sodda va qo'shma gapga teng turlarini morfologik hamda komponent tahlilga tortish orqali mushtarak va farqli jihatlari borligi dalillangan;

kontekstlar asosida ingliz va o'zbek tillarida qo'llaniladigan zoonim va fitonim komponentli frazeologik birliklarning lingvopragmatik xususiyatlari asoslangan hamda ulardagi obrazlilikning milliy-lisoniy omillari isbotlangan.

Tadqiqotning **amaliy natijalari** quyidagilardan iborat:

ingliz va o'zbek frazeologik lug'atlarida qayd etilgan zoonim va fitonim komponentli frazeologik birliklarning qiyosiy tahlili natijasida aniq ma'lumotlar olingan;

ingliz va o'zbek frazeologiyasida zoonim va fitonim komponentli frazeologik birliklarning sintaktik modelga asoslangan tasnifi keltirilgan;

tadqiq etilayotgan tillar zoonim va fitonim komponentli frazeologik birliklarini semantik-struktura bo'yicha komponent tahlil qilish va tasniflash metodikasi ishlab chiqilgan;

zoonim va fitonim komponentli frazeologik birliklarning ingliz va o'zbek tillarida qo'llanish holatini lingvistik tahlil qilish usuli taklif qilingan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi muammoning aniq qo'yilgani, nazariy ma'lumotlarni dalillashda aniq ilmiy manbalarga tayangan holda ish olib borilgani, materiallar ilmiy nuqtai nazardan sinalgan metodlar asosida tavsif etilgani, nazariy fikr va xulosalarning amaliyotga joriy etilganligi, olingan natijalarning vakolatli tashkilotlar tomonidan tasdiqlanganligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati shundan iboratki, ingliz va o'zbek tillaridagi zoonim va fitonim komponentli frazeologik birliklarning semantik, grammatik hamda milliy-lisoniy xususiyatlari qiyosiy-chog'ishtirma aspektida tahlil qilingan va ularning semantik-struktur xususiyatlari atroflicha ochib berilgan hamda ularni qiyosiy-tipologik jihatdan chog'ishtirish va tadqiq etish nazariyasini yanada boyitishga xizmat qilishi dalillangan.

Tadqiqotning amaliy ahamiyati shundan iboratki, ilmiy ishda erishilgan natijalardan oliy o'quv yurtlarida leksikologiya, frazeologiya, stilistika, tarjimashunoslik sohalarida ma'ruzalar o'qishda, maxsus kurslar o'tishda, darsliklar, o'quv qo'llanmalar, ayniqsa, ingliz va o'zbek tillaridagi zoonim va fitonim tarkibli frazeologik birliklar ikki tilli lug'atini yaratishda, o'quv jarayoniga tatbiq qilishda keng foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Ingliz va o'zbek tillarida zoonim va fitonim komponentli frazeologik birliklarining semantik-struktur xususiyatlarini qiyosiy jihatdan tahlil qilish jarayonida erishilgan ilmiy natijalar va amaliy takliflar asosida:

zoonim va fitonim komponentli frazeologik birliklarning leksik-semantik maqomini aniqlash mezonlari, ularning tuzilishi, semantikasi kabi o'zaro farqlovchi xususiyatlar tarkibini aniqlashtirish asosida olingan xulosalardan «Qoraqalpoq folklorshunosligi va adabiyotshunosligini tadqiq etish» mavzusidagi

FA - F - 1-005 fundamental tadqiqot loyihasida o‘z ifodasini topdi (O‘zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasining Qoraqalpog‘iston bo‘limi 2021-yil 20-oktyabrdagi 17-01-283-son ma‘lumotnomasi). Tadqiqot natijalarini amaliy qo‘llash fundamental loyiha doirasida tayyorlangan ilmiy maqolalar hamda folklor asarlarining til xususiyatlarini o‘rganishga oid olib borilgan tadqiqotlar ilmiy saviyasini oshirishga xizmat qilgan;

chog‘ishtirilayotgan tillar kesimida zoonim va fitonim komponentli frazeologik birliklarning semantik xususiyatlari va konnotativ-baho munosabatlari yoritilgan hamda semantik-tematik tasnifiga ko‘ra turli guruhlariga bo‘linishi aniqlanganligi haqida fikrlardan Yevropa Ittifoqining Tempus dasturi 2018-2020 yillarga mo‘ljallangan Tempus Project 544161-TEMPUS-1-2013-1-UK-TEMPUS-JPCR Aston University DeTEL “Developing the Teaching of European languages: Modernizing Language Teaching through the development of blended Masters Programmes” nomli xalqaro tadqiqot loyihasida foydalanilgan (Samarqand davlat chet tillar institutining 2021-yil 12-noyabrdagi 2877/30.02.01-son ma‘lumotnomasi). Natijada, chog‘ishtirilayotgan tillar kesimida zoonim va fitonim komponentli frazeologik birliklarning semantik xususiyatlari va konnotativ-baho munosabatlari tillararo muloqot madaniyatini shakllantirish kompetensiyalarini rivojlantirishda, loyiha treninglari uchun mo‘ljallangan maqsadli ishchi dastur va dars ishlanmalarini shakllantirishda nazariy asos bo‘lgan;

kontekstlar asosida ingliz va o‘zbek tillarida qo‘llaniladigan zoonim va fitonim komponentli frazeologik birliklarning lingvopragmatik xususiyatlari asoslangan hamda ulardagi obrazlilikning milliy-lisoniy omillari bilan bog‘liq ilmiy-nazariy tahlillardan O‘zbekiston Milliy teleradiokompaniyasining “O‘zbekiston” teleradiokanali DM “Madaniy-ma‘rifiy va badiiy eshittirishlar” muharririyatining “Ta‘lim va taraqqiyot”, “Millat va ma‘naviyat”, “Jahon adabiyoti” nomli dasturlari ssenariysini tayyorlashda foydalanilgan (O‘zbekiston Milliy teleradiokompaniyasining 2021-yil 29-oktyabrdagi 04-25/1691-son ma‘lumotnomasi). Natijada, tinglovchilarning ikki xalq madaniyati haqidagi bilimlari oshishiga erishilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot natijalari 3ta xalqaro va 7 ta respublika ilmiy-amaliy konferensiyalarida ma‘ruza ko‘rinishida bayon etilgan va aprobatsiyadan o‘tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e‘lon qilinishi. Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha 17 ta ilmiy ish nashr etilgan. Shulardan 1 ta monografiya, 6 tasi O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish uchun tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda, 2 ta xorijiy va 4 ta respublika ilmiy jurnallarida e‘lon qilingan.

Dissertatsiyaning hajmi va tuzilishi. Dissertatsiyaning tarkibi kirish, uchta bob, boblar bo‘yicha xulosalar, ishning xulosasi, foydalanilgan ilmiy va badiiy adabiyotlar ro‘yxatidan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 131 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida tadqiqotning dolzarbligi va zarurati asoslangan, uning O‘zbekiston Respublikasi fan va texnologiyalarning ustuvor yo‘nalishlariga

mosligi, muammoning o'rganilganlik darajasi yoritilgan, dissertatsiyaning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari ko'rsatib o'tilgan, ishning maqsad va vazifalari, tadqiqot ob'yekti va predmeti bayon etilgan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy qilinishi, nashr etilgan ishlar va dissertatsiyaning tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi **“Ingliz va o'zbek tillarida zoonim va fitonim komponentli frazeologik birliklarning semantik xususiyatlari”** deb nomlangan bo'lib, uch fasldan tarkib topgan. Bobning “Zoonim va fitonim komponentli frazeologik birliklar frazeologiyaning o'rganish ob'yekti sifatida” deb nomlangan faslida jamiyatdagi munosabatlarni, hodisa va holatlarni soddaroq, oydinroq va obrazliroq ifodalash maqsadida frazeologik birliklardan tabiatdagi o'z xususiyatlari bilan shunga mos keladigan turli vositalar, jumladan, hayvonlar va o'simliklar olamiga xos bo'lgan zoonim va fitonim so'zlarni o'rganish va ularni qiyoslashdan boshlangan tadqiqotlarning keyinchalik frazeologiyaga ko'chganligi va tarkibida hayvon va o'simlik nomlari bo'lgan frazeologik birliklarning struktural-semantik va grammatik jihatlari alohida o'rganila boshlanligi, shuningdek, zoonim va fitonim komponentli frazeologik birliklarning leksik-semantik xususiyatlari, semantik-tematik turlari haqidagi ilmiy-nazariy qarashlar o'rganilib, ularga munosabat bildirilgan.

Ushbu faslda zoonimlar, zoonim komponentli matnlarning lingvistik xususiyatlari D.X.Bazarova, H.A.Saidova, Dj.Metyakubov, B.B.Abdushukurov, N.R.Nishonova, B.Zaripov, B.M.Jo'rayeva, D.M.Yuldasheva, G.E.Hakimova, A.J.Omonturdiyev, Sh.Noraliev¹⁰ kabi olimlar tomonidan o'rganilganligi keng tahlil etildi.

Dissertatsiyada fitonimik leksika to'g'risida X.Jamolxonov, Yu.Eshonqulov, G.Nigmatova, M.Xoshimxo'jayeva¹¹ kabi o'zbek olimlari ishlarida keng izohlanganligi ishda yoritib berilgan. Shuningdek, tadqiqotda ingliz tili fitonimlarining tahliliga bag'ishlangan eng ahamiyatli tadqiqotlar sifatida T.B.

¹⁰Базарова Д.Х. История формирования и развитие зоологической терминологии узбекского языка. – Ташкент: Фан, 1978. – С. 222.; Saidova H.A. O'zbek tilida hayvon nomlarining shaxs tavsifi vazifasida qo'llanilishi: Filol.fanlari nomzodi.... diss. – Vuxoro, 1995. – 178 b.; Метякубов Дж. Характеристика человека зоонимами в разносистемных языках: на материале английского и узбекского языков: Дисс. ... канд.филол.наук. – Ташкент, 1996. – 173 с.; Abdushukurov B.B. XI-XIV asr turkiy yozma manbalar tilidagi zoonimlar: Filol.fanlari nomzodi.... diss. – Toshkent, 1998. – 207 b.; Nishonova N.R. O'zbek tilida “hayvon” arxisemali leksemalar maydonining mazmuniy tahlili: Filol. fanlari nomzodi.... diss. –Toshkent, 2000. – 120 b.; Zaripov B. Zoonimlarning badiiy san'at turlarini hosil qilishdagi ishtiroki (Alisher Navoiy asarlari asosida): Filol. fanlari nomzodi.... diss. – Toshkent, 2002. – 128 b.; Jo'rayeva B. Maqolning yondosh hodisalarga munosabati va ma'noviy xususiyatlari. – Toshkent: Fan, 2007. – 66 b.; Yuldasheva D.M. O'zbek bolalar folklori tilida zoonimlar: Filol. fanlari nomzodi.... diss. – Toshkent, 2007. – 124 b.; Hakimova G.E. Zoonim komponentli frazeologik birliklarning strukturaviy va semantik xususiyatlari (ingliz tili materiallari asosida): Filol. fanlari nomzodi.... diss. – Toshkent, 2008. – 145 b.; Omonturdiyev A.J. Professional nutq evfemikasi (chorvadorlar nutqi misolida): Filol. fanlari d-ri ... diss. – Toshkent, 2009. – 252 b.; Noraliyeva Sh. O'zbek folklorida bo'ri obrazining mifologik asoslari va badiiy talqini. – Toshkent: Al-faba-servis, 2013. – 115 b.

¹¹Jamolxonov H. O'zbek botanika terminologiyasining shakllanish va rivojlanish tarixidan: Filol. fan. nom. ... diss. avtoreferati. – T., 1969. – 25 s.; Эшонкулов Ю. Опыт историческо-этимологического анализа названий плодов в узбекском языке: Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Т., 1977. – 24 с.; Нигматова Г.Х. Система и художественное функционирование лексем-названий растений в узбекском языке: Автореф. дисс. ... канд. филол. наук.–Т.,1998.–21с.; Xoshimxo'jayeva M.. Olamning lisoniy tasvirida fitonimlar(ingliz,rus va o'zbek tillari misolida) Filol. fan. falsafa dokt (PhD) diss...avtoref. – Toshkent: 2018. – 20 b.

Gaber, J.Rasa, I.Samfira, F.Sala, D.Xuk, U.Krishke, O.P.Ryabko¹²larning ishlari haqida batafsil fikrlar keltirilgan.

Frazeologik birliklar semantikasida milliy madaniyatning o‘ziga xosligi, xalqning milliy an’analariga xos xususiyatlari aks etadi. Shu nuqtai nazardan frazeologik birliklarda milliy-madaniylikni ifodalashda tilning boshqa xususiyatlari ham yorqin namoyon bo‘lishi mumkin. Misol tariqasida, turli xalqlar bitta hayvonni turlicha qiyoslaydilar. Ba’zan bir xalqdagi qiyos ikkinchisidagiga umuman o‘xshamaydi, hattoki zid bo‘lishi ham mumkin, ijobiy va salbiy baholash holatlari ham kuzatiladi. Zero, har qanday xalqning o‘z makoni va zamoni mavjudligi, o‘zining hayvonot va o‘simlik olamiga egaligi o‘sha tillarda o‘ziga xos iboralarning shakllanishiga sabab bo‘ladi. Tadqiqotda leksik-semantik tarkibga ko‘ra ZKFB va FKFB¹³lar uch asosiy guruhga ajratilgan:

1) Ma’nosi hamda tarkibi-dagi zoonim va fitonim komponentlari bir xil bo‘lgan frazeologik birliklar;	2) Ma’nosi jihatidan bir xil, ammo tarkibidagi zoonim va fitonim komponentlari har xil bo‘lgan frazeologik birliklar;	3) Ma’nosi ham, tarkibidagi zoonim va fitonim komponentlari ham har xil bo‘lgan frazeologik birliklar;
<ul style="list-style-type: none"> • otday baquvvat-as strong as a horse • tuxumdan chiqqan jo‘ja - spring chicken • lavlagiday qip qizil-red as a beet • mehnatning mevasi- the fruit of one's labour 	<ul style="list-style-type: none"> • qari tulki-old dog • otning qashqasiday-white crow • lavlagidek qizarmoq-as red as a cherry • olmaning ikki pallasiday-like as two peas in a pod 	<ul style="list-style-type: none"> • egarlangan otday • tarvuzi qo‘ltig‘idan tushmoq • Bull of Bashan (yo‘g‘on ovoqli odamga nisbatan) • Kilkenny cats (ashaddiy dushman odamlarga nisbatan)

Dunyoni til vositalarida ko‘rish inson ongida olamni mantiqiy aks ettirish bilan bog‘liq bo‘ladi. Masalan, ingliz tilidagi “*Dog doesn’t eat dog*”(it itni yemaydi) o‘zbek tilidagi “*qarg‘a qarg‘aning ko‘zini cho‘qimaydi*” frazeologik birligiga mos keladi. **Tuya go‘shiti yemoq-** frazeologik birligi biron kimsa tomonidan biron ish paysalga solinib, sekin bajarilishini bildiradi. Masalan: “*Qaniydi, o‘zimizdagi tuya go‘shiti yegan hammom ishga tushsa-yu, biz bu tashvishlardan qutulsak*”. (Mushtum jurnalidan) Ingliz tilida ham xuddi shu ma’no “**For donkey’s years**” (merriam-webster dictionary) (*Eshak yillari-uzoq vaqt ma’nosida*) iborasi orqali beriladi: *He’ll be no loss, that’s for sure. Sure his own family haven’t spoken to him for donkey’s years.* (Garchi u oilasini uzoq yillardan beri ko‘rmagan bo‘lsa ham uning o‘zini yo‘qotmasligi aniq) Ammo, bu o‘xshatish ob’yektlari xalqlarning mentalitetida bir biridan keskin farq qilishi mumkin. Masalan, o‘zbek madaniyatida mubolag‘a ma’nosida “**toshbaqa tolga chiqqanda**”

¹²Haber T. Canine Terms in Popular Names of Plants // American Speyech. – vol. 38, No.1, 1963. – P. 28-41.; Rață G., Samfira I., Sala F. Agricultural English. – Newcastle upon Tyne: Cambridge Scholars Publishing, 2012. – 385 p.; Klug H.W., Van Arsdall A., Blanz P. The Mandrake Plant and its Legend: a New Perspective // Old Names – New Growth: Proceedings of the 2nd ASPNS Conference, University of Graz, Austria, 6-10 June 2007, and Related Essays. – Frankfurt: Lang, 2009. – P. 285-346.; Hooke D. Trees in Anglo-Saxon Charters: Some Comments and Some Uncertainties // Old Names – New Growth: Proceedings of the 2nd ASPNS Conference, University of Graz, Austria, 6-10 June 2007, and Related Essays. – Frankfurt: Lang, 2009. – P. 75-98.; Krishke U. On the Semantics of Old English Compound Plant Names: Motivations and Associations // Old Names – New Growth: Proceedings of the 2nd ASPNS Conference, University of Graz, Austria, 6-10 June 2007, and Related Essays. – Frankfurt: Lang, 2009. – P. 211-278; Herman D., Moss S. Plant names and folk taxonomiyes: Frameworks for ethnosemiotic inquiry // Semiotica 2007, № 167.– P.1-11.; Рябко О.П. Номинативные и структурно-семантические свойства сложных субстантивных образований (на материале наименований растений): Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – P.-на-Д., 1988. – 24 с.

¹³ZKFB – Zoonim komponentli frazeologik birliklar, FKFB – Fitonim komponentli frazeologik birliklar.

frazemalari qo‘llanganda, amalga oshirib bo‘lmas ish ma’nosi anglashiladi. Xuddi shu ma’noni ingliz kontekstida ham uchraydi, ammo bunda boshqa zoonimlar ishtirok etadi: *“When pigs fly*(merriam-webster dictionary)-*(cho‘chqalar uchganida)”* yoki *“Till the cows come home”* (merriam-webster dictionary)-*(sigirlar uyga qaytguncha)*.

Mazkur bobning ikkinchi faslida zoonim va fitonim komponentli frazeologik birliklarning semantik-tematik guruhlari tasniflangan.

Muayyan xalq va millat dunyoqarashi, hayot tarzi va o‘y-fikrlari frazeologik birliklar semasidan anglashiladi. Ma’lumki, aksariyat xalqlar nazdida tulki - ayyorlik va chaqqonlik; bo‘ri - ochko‘zlik va yirtqichlik; cho‘chqa – ochko‘zlik; ilon - makkorlik, hiylakorlik, razillik, qabihlik; ayiq - muruvvatlilik, qo‘pollik, beso‘naqaylik; maymun – epchillik; arslon - kuchlilik, muruvvatlilik, oliyjanoblik; qo‘y - yuvoshlik va mo‘minlik; chumoli, ari – mehnatkashlik; eshak – ahmoqlik; it - vafodorlik ramzi sifatida shaxsning u yoki bu xarakteri, xulq-atvorini ifodalaydi. Mazkur zoonimik leksemalar frazemalar tarkibida ishtirok etib, ularni ifodaviy va mazmunan shakllantiradi. Zoonim frazeologik birlikning komponentiga aylanganida, uning leksik ma’nosi yo‘qoladi va shaxsga xos xususiyatlarni (xarakat faoliyati, turmush tarzi, odatlari, tashqi ko‘rinishi, nutqi) ifodalaydi. Misol uchun, **ot** insonning kundalik hayoti faoliyatida, uy-ro‘zg‘orida, har xil yumushlarni bajarishida ulov vazifasini bajaradi. Otning inson hayoti tarzi bilan bunday yaqinligi qator frazemalarning hosil bo‘lishiga sabab bo‘lgan. *Oyog‘i uzangida bo‘lmoq, otday bo‘lmoq, yaxshi ot keyin chopar, bedov ot yo‘lda surinar, yolg‘iz otning chang‘i chiqmas, oziqlik ot qarimaydi, otning qashqasiday, otni qamchilamoq, ot solmoq, ot qo‘ymoq, ot bilan tuyacha, toy mingan ot ham minadi* kabi nutqda ko‘p ishlatilishi bilan xarakterlidir. Misol tariqasida, **Otdan tushsa ham uzangidan tushmaslik yoki otdan tushsa ham egardan tushmaslik** kabi frazemalar bo‘lar-bo‘lmasga bahslashaveradigan, mantiqsiz, o‘zining fikrini ma’qul qilishga harakat qiladigan shaxslarning xarakterini ifodalaydi.

1-jadval

Ingliz va o‘zbek tillarida ot leksemasi ishtirok etgan frazeologik birliklarning ifoda semalari

O‘zbek tilida ot komponentli frazeologik birliklar ifoda semalari	Ingliz tilida ot komponentli frazeologik birliklar ifoda semalari
Sog‘lomlik: otday baquvvat, otday kuchli	Sog‘lomlik: as strong as a horse (otdek kuchli bo‘lmoq)
Manmanlik: otdan tushsa ham, egardan tushmaslik	Bosiqlik: hold your horses (o‘zingizni bosing)
Badnafslilik: Yemxo‘r ot to‘rva teshar	Mehnatkashlik: to spur a willing horse (ishchan otga qamchi urmoq)
Mardlik: Ot tepkisini ot ko‘tarar	Hayotiy tajriba: when two ride on one horse, one must sit behind (ikki kishi otga minsa, biri orqada o‘tirishi kerak)
Shukronalik: baxshi qilingan otning tishiga boqilmas	Sabrlilik: Don’t swap horses when crossing a stream (kechuvda otingni alishtirma)
Sabrlilik: yaxshi ot keyin chopadi	Badnafslilik: to eat like a horse (ochofatlik bilan yemoq)

Yuqoridagi jadvaldan ko‘rish mumkinki, qardosh bo‘lmagan xalqlar lingvomadaniyatida ot komponentli frazeologik birliklar aksariyat hollarda ijobiy ma‘noda qo‘llanilib, bu otning inson hayoti tarzi bilan yaqinligini isbotlaydi. Tadqiqot jarayonida ingliz va o‘zbek tillaridagi zoonim komponentli frazeologik birliklar uy hayvonlari, yovvoyi hayvonlar, baliqlar, qushlar, sudralib yuruvchilar va hasharotlar tarzida alohida mavzuiy guruhlariga ajratilib, ularning ifoda semalari faktik materiallar orqali izohlandi.

Ma‘lumki, tildagi ma‘noli birliklar semantikasi, tabiiy ravishda, yondosh ma‘nolar (yaqin, zid, o‘xshash ma‘nolar) orqali ochib beriladi.¹⁴ Ikkilamchi nomlash inson assosiativ tafakkuriga xos qonuniyatlar-o‘xshashlik assosiasiyasi qonuniyati va yondoshlik assosiasiyasi qonuniyati ta‘sirida kechadigan metaforik hamda metonimik nom ko‘chishlardir. Ta‘kidlaganimizdek, zoonimlar va fitonimlarda ikkilamchi nomlash jarayoni psixologiyaning o‘xshatish assosiasiyasi qonuniyati asosida kechadi.

Bu esa o‘z navbatida inson va o‘simliklar dunyosi o‘rtasidagi o‘zaro aloqa mavjudligini isbotlaydi. Ya‘ni o‘simlik va uning xususiyatlari inson uchun nafaqat amaliy jihatdan xizmat qiladi, balki ramzlar, estetik etalonlar va atrof-muhit haqidagi ma‘lumotlar konseptualizasiyasi uchun kategoriyalar vazifasini bajaradi. Tadqiq qilinayotgan tillar olam tasvirida tashqi ko‘rsatkichlar, xarakter, his-tuyg‘u, jismoniy holat, aqliy qobiliyat, boshqa insonlarga munosabat, zurriyod, mehnatsevarlik, omad, omadsizlik, sifat va vaqt kabi fitonimlar orqali ifodalanadigan inson xarakteristikalarini eng ko‘p uchraydigan tushunchalar sifatida oldinga chiqadi. Shunga asoslangan holda, har ikkala tildagi fitonim komponentli frazeologik birliklar daraxtlar, o‘simliklar, gullar, mevalar nomlari kabi guruhlariga saralangan.

“Ingliz va o‘zbek tillarida zoonim va fitonim komponentli frazeologik birliklarning struktural tarkibi” deb nomlangan ikkinchi bobida zoonim va fitonim komponentli frazeologik birliklar struktural jihatdan tasniflanib, ularning so‘z birikmasiga, sodda va qo‘shma gapga teng turlari morfologik va komponent tahlilga tortilgan.

Bobning **“Ingliz va o‘zbek tillarida frazeologik birliklar tasnifi”** deb nomlangan birinchi faslida jahon va o‘zbek tilshunosligida olimlarning frazeologik birliklar strukturasi xususidagi ta‘riflari keltirilgan. Jahon tilshunosligida frazeologik birliklarni modellashtirishning bir qator usullari mavjudligi tadqiqot ishlarida keltirilgan. Ular:

1) sintaktik model - so‘z birikmasi sifatida iboralarni strukturali shakllantirish: ot+fe‘l, sifat+ot tipidagi modellar;

2) logik - semantik model-iboralarni logik-semantik jihatdan shakllantirish: antetiza, qiyoslash va tasviriy vositalar orqali shakllantirish;

3) motivasion model - iboralarning botiniy formulasi orqali shakllantirish;

4) struktural - semantik model - botiniy va struktural formula orqali iboralarni shakllantirish;

5) derivasion model - tilda mavjud iboralar asosida yangi frazemalarni shakllantirish;

¹⁴Lutfullayeva D.E. Assosiativ tilshunoslik nazariyasi. Toshkent, 2017. – 24b.

6) nominativ model - denotativ ma'nolar asosida iboralarni shakllantirish¹⁵.

Ta'kidlaganimizdek, har ikkala tildagi zoonim va fitonim komponentli frazeologik birliklarning morfologik tarkibi turli xil so'z turkumlaridan tashkil topgan va sintaktik modellar asosida tashkil topgan. Tuzilishiga ko'ra so'z birikmasi shaklida bo'lgan frazeologik birliklar: *ammamning buzog'i, kaltakesakday sovuq, lavlagiday qizarmoq, bo'rdoqiday semiz, gilosday qizil, bo'riday g'ajimoq, as playful as a kitten (sho'xlik qilmoq), pick the plums out of the pudding (yaxshisini saralamoq), to buy a pig in a poke (ko'r-ko'rona xarid)* kabi frazeologik birliklar mazmunan tugal fikr anglatmay, grammatik jihatdan shakllanmagan, ikki yoki undan ortiq so'z birikmasidan tashkil topgan. Shuningdek, so'z birikmasiga teng frazeologik birliklar bir butun holda leksik ma'no ifodalaydi. Bunday sintaktik so'z birikmalarini ham semantik, ham grammatik nuqtai nazardan tahlil qilish mumkin. Shu tariqa, so'z birikmalarining umumiy ma'nosi ularning tarkibidagi komponentlari ma'nolari birlashuvidan yuzaga keladi. So'z birikmasiga teng frazeologik birliklar ikki leksemaning o'zaro semantik-sintaktik bog'lanib, umumiy ko'chma ma'no kashf etishi natijasida paydo bo'ladi. So'z birikmasiga teng frazeologik birliklarning ifoda jihati deb ularning asli qanday til birliklardan tashkil topgani tushuniladi. Masalan: "Bull's eye" (buqaning ko'zi) - frazemasi so'z birikmasi shaklida bo'lib, "bull" leksema shaklining "eye" leksemasiga tobelanishi bilan tuzilgan bu zoonim komponentli frazeologik birlik o'z ma'nosida buqaning ko'rish organi bo'lmish ko'zni ifodalasa, ko'chma ma'noda esa nishonga olmoq ma'nosini anglatadi.

Kuzatishlarimiz ko'rsatishicha, ingliz tilida ikki komponentli frazeologik birliklar quyidagi strukturaviy modellarga ega:

1. **Noun+noun(ot+ot)** strukturaviy modeli bilan quyidagi zoonim va fitonim komponentli frazeologik birliklar yasalgan: *monkey business*-ahmoqona odat, *the cat's meow* (mushukning miyovi)-yaxshi narsa, *jail bird*-(qafasdagi qush)jinoiy qidiruvchi, *a spring chicken* (bahorgi jo'ja)-tajribasiz kishi;

2. **Adjective+noun(sifat+ot)** strukturaviy modeli bo'yicha quyidagi zoonim va fitonim komponentli frazeologik birliklar yasalgan: *an old cat*- shum kampir, *the big bird*-hushtak, *a day bird*-xushchaqchaq odam, *a fat cat*-kapitalist, *a tame cat*-uy qizi, *a dull dog*-zerikarli shaxs, *a dumb dog*-kamgap kishi, *hot dog*-issiq sosiskali bulochka, *a lame dog*-omadsiz kishi, *a yellow dog*-qo'rqoq kishi, *top dog*-xo'jayin;

3. **Verb+noun(fe'l+ot)** strukturaviy modeli: *show the elephant*-katta shaharni kimgadir tanishtirmoq, *see the elephant*-tajriba orttirish, *feed the fishes*-suvda cho'kmoq, *act the goat*-ahmoq qilmoq, *start a hare*-suhbatni boshlamoq;

4. **Conjunction+noun(bog'lovchi+ot)** strukturaviy modeli: *like a lamb*-qo'zichoqqa o'xshab; *like a bird*-hech ikkilanmay;

Noun+preposition+noun(ot+predlog+ot) strukturaviy modeli asosida yasalgan birliklar: *a bird in the hand*-naqd narsa, *a bird of paradise*-jannat qushi.

¹⁵Mamatov A., Ochilov D. Frazemalarning sintaktik va derivatsion modellari // Stilistika va pragmatika, 2-qism. — Samarkand: SamDU, 2010. — B6.

O'zbek tilida ikki komponentli ZKFB va FKFBlar quyidagi shakllarga ega:

1) **Ot+fe'l** (dumini tugmoq, ichini kemirmoq, kapalagi uchdi, pashsha qo'rimoq, it sug'ormoq, tumshug'ini tiqmoq) kabi. *Bugun yoshlarimizning chet tillarda **bulbulday sayrashlarini ko'rib, ham havas qilamiz, ham o'zimizning "tilsizlik" tufayli boshimizga tushgan kunlarni eslab o'kinamiz***(E.Vohidov. Uch soqovning sarguzashti). Misol uchun, "tumshug'ini tiqmoq" frazemasini tahlilga tortaylik: u ot+fe'l modelida, so'z birikmasiga teng bo'lib, o'zaro egalik (-i) va kelishik (-ni) qo'shimchalarini olish orqali sintaktik munosabatga kirishgan. Ot+fe'l modelidagi namunalar mikdor jihatidan ko'pchilikni tashkil etadi va ular og'zaki nutqda ancha faol qo'llaniladi. Yana ta'kidlash o'rinliki, bunday frazeologik birliklar o'zbek tilining lug'at boyligida ham juda katta qismni tashkil etadi.

2) **Ot+sifat** (itday sodiq, gilosday qizil, guruchday oppoq, bo'riday och, bo'rdoqiday semiz, bo'riday dovyurak, gulday nafis, kaltakesakday sovuq, gunchaday nozik, g'ozday tik, qo'chqorday pahlavon) yoxud **sifat+ot** (xira pashsha, tirraqi buzoq, asov otday) modelidagi ikki komponentli frazeologik birliklar har ikkala tilda ham uchraydi.

3) **Ot+ot** (ot bilan tuyacha, burgutning nigohi, ari uyasiday, ammamning buzog'i, tovuq miya, dumi xurjunda, it azobi, eshak miya, suvdagi baliqday, sichqonning dumiday, otning qashqasiday, otning kallasiday, o'g'ri mushukday, piyoz po'stiday)

Mazkur bobning ikkinchi faslida sodda gap shaklidagi zoonim va fitonim komponentli frazeologik birliklar tasniflangan. Gapga teng bo'lgan frazeologik birliklarni tuzilishiga ko'ra ikki guruhga ajratish mumkin: Birinchisiga u yoki bu voqea-hodisani, voqelikni atovchi, ya'ni, nominativlikni ifodalovchi frazeologik birliklar kiradi. Masalan: "*ilonning oyog'ini sanagan*"-mug'ombir; "*qo'y og'zidan cho'p olmagan*"-yuvosh; "*crow's feet* (qarg'aning oyoqlari)"- ajinlar; "*hot boiled egg*(qaynagan tuxum)"-rahmsiz;

Misollardan ko'rinadiki, bu turdagi frazeologik birliklar tugal fikrni ifoda etmasdan, kishining xarakterini ifodalaydi. Bu frazeologik birliklar gapning biror bo'lagi sifatida ishtirok etadi. Ikkinchi guruh frazeologik birliklar esa tugal fikrni anglatib, grammatik jihatdan shakllanib, predikativlik xususiyatiga ega bo'ladi. Ular gapda alohida yoki qo'shma gapning bir bo'lagi sifatida qatnashadi. Masalan: *podadan oldin chang chiqarmoq, burgaga achchiq qilib ko'rpani kuydirmoq* kabi qo'shma gap tipidagi frazeologik birliklar tilda mazmunan tugal fikrni, grammatik jihatdan shakllangan va sintaktik qonun-qoidalar asosida shakllangan holda uchraydi. Ingliz tilida ko'p komponentli zoonim va fitonim komponentli frazeologik birliklar mavjud bo'lib, ular quyidagi modellarga ega:

1) **verb+conjunction+noun+noun**: *quake like an aspen leaf-bargday titramoq*;

2) **pronoun+noun+preposition+noun**: *no rose without a thorn-gul tikonsiz bo'lmas*;

3) **conjunction+noun+preposition+adjective+noun**: *like a cat on hot bricks-oyog'i kuygan tovuqday patillamoq*;

4) **verb+preposition+noun+verb+noun**: *to shoot a pigeon and kill the crow-sallani o'rniga kallani olmoq*;

5) **verb+noun+preposition+pronoun+noun:** *to head the lion in his den-*
dushmanga o'z uyida xujum qilish;

6) **noun+conjunction+verb+adjective+noun:** *the goose that laid the golden*
eggs-koni foyda;

7) **verb+noun+conjunction+verb+adjective+noun:**

To kill the goose that laid the golden eggs- o'z ildiziga bolta urmoq;

8) **pronoun+adjective+noun+verb+adjective**

Every thing is lovely and the goose hangs high- hammasi o'z joyida; hech
narsa bo'lgani yo'q;

